



№ 26

2026 yil «22» «yanvar»

“O‘zsanoatqurilishbank” ATB tizimida moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelgan mijozlar bilan tuzilgan kredit shartnomasi shartlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish (restrukturizatsiya) Tartibini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2025-yil 9-oktyabrdagi 25/1-sonli qarori bilan “Bank xizmatlari iste‘molchilari bilan o‘zaro munosabatlarni amalga oshirishda tijorat banklarining faoliyatiga qo‘yiladigan minimal talablar to‘g‘risidagi nizomga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritilgan (ro‘yxat raqami: 3030-11, 2025-yil 28-oktyabr).

Mazkur qo‘shimcha va o‘zgartirishlarga ko‘ra, banklar moliyaviy qiyinchiliklar, murakkab hayotiy vaziyatlarga tushib qolgan hamda fors-major holatlari tufayli o‘z vaqtida kredit to‘lovlarini amalga oshirishga qiynalayotgan iste‘molchilarning amaldagi kreditlari bo‘yicha kredit shartnomasi shartlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish (restrukturizatsiya) imkoniyatlari borasidagi arizalarini ko‘rib chiqish tartibiga ega bo‘lishi shartligi belgilangan.

Ushbu Nizomga kiritilgan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar bilan belgilangan qoidalarni amaliyotga joriy qilish hamda mijozlar bilan ishonchli munosabatlarni mustahkamlash maqsadida “O‘zsanoatqurilishbank” ATB tizimida moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelgan mijozlar bilan tuzilgan kredit shartnomasi shartlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish (restrukturizatsiya) Tartibini ishlab chiqish zaruriyati mavjud.

Shu munosabat bilan, Chakana biznes departamenti tomonidan tegishli tarkibiy bo‘linmalar bilan kelishilgan holda “O‘zsanoatqurilishbank” ATB tizimida moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelgan mijozlar bilan tuzilgan kredit shartnomasi shartlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish (restrukturizatsiya) Tartibi loyihasi ishlab chiqilib, o‘rnatilgan tartibda tasdiqlash uchun Bank boshqaruvi muhokamasiga kiritilgan.

Bank boshqaruvi to‘g‘risidagi nizomning 21-bandiga asosan, Bankning nizom, tartib, qoida va yo‘riqnoma shaklidagi ichki hujjatlarni tasdiqlash hamda ularga o‘zgartirishlar kiritish Bank boshqaruvi vakolatiga kiradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Bank boshqaruvi

QAROR QILADI:

1. "O'zsanoatqurilishbank" ATB tizimida moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelgan mijozlar bilan tuzilgan kredit shartnomasi shartlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish (restrukturizatsiya) Tartibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Chakana biznes departamenti (B. Otamurotov) mazkur Tartib tasdiqlangandan so'ng:

hujjat (asli)ni ro'yxatdan o'tkazish uchun Yuridik departamentga taqdim etilishini;

ro'yxatdan o'tkazilgan hujjat nusxasini ishda foydalanish va unga qat'iy rioya qilish uchun tegishli tarkibiy bo'linma va bank tarmoqlariga yetkazilishini hamda o'quv seminarlari tashkil etilishini ta'minlasin.

3. Yuridik departamenti (U. Aminova) mas'ul tarkibiy bo'linma tomonidan taqdim etilgan hujjatni ro'yxatdan o'tkazilishini va nusxasini qonunchilikda belgilangan muddatda Markaziy bankka yuborilishini ta'minlasin.

4. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Biznes Bosh direktori T. Norov zimmasiga yuklatilsin.

Boshqaruv Raisi	IMZOLANGAN	A.Akbarjonov
Boshqaruv Raisining birinchi o'rinbosari	IMZOLANGAN	A.Ergashev
Boshqaruv Raisi o'rinbosari	IMZOLANGAN	Sh.Yakubov
Boshqaruv Raisi o'rinbosari	IMZOLANGAN	D.Umarov
Risk bosh direktori	IMZOLANGAN	Y.Gorohov
Buxgalteriya hisobi va hisoboti departamenti direktori	IMZOLANGAN	A.Xujamuratov

Kiritildi:

Chakana biznes departamenti Departament direktori v.v.b	IMZOLANGAN	B.Otamurotov
--	-------------------	--------------

Kelishuvchilar:

Yuridik departament Yuridik departament direktori v.v.b.	KELISHILDI	U.Aminova
Rahbariyat Biznes Bosh direktori v.b.	KELISHILDI	T.Norov



<https://hujjat.sqb.uz/?pin=sV12fP65&id=5f8844ca-4865-4c93-942d-304ec24096a8>



“O‘ZBEKISTON SANOAT-QURILISH BANKI” AKSIYADORLIK TIJORAT BANKI
“UZBEK INDUSTRIAL AND CONSTRUCTION BANK” JOIN-STOCK COMMERCIAL BANK
АКЦИОНЕРНЫЙ КОММЕРЧЕСКИЙ БАНК “УЗБЕКСКИЙ ПРОМЫШЛЕННО-СТРОИТЕЛЬНЫЙ БАНК”

O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, 100000, Shahrisabz ko‘chasi, 3-uy
E-mail: info@sqb.uz, web-site: www.sqb.uz

TARTIB

Yuridik departament
Korporativ va ichki hujjatlar
ekspertizasi xizmatida
2026-yil “17” fevral da
681 - son bilan
“RO‘YXATGA OLINGAN”
reestr № 1



“O‘zsanootqurilishbank” ATB tizimida moliyaviy qiyinchiliklarga dush kelgan mijozlar bilan tuzilgan kredit shartnomasi shartlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish (restrukturizatsiya)

TARTIBI

Mazkur Tartib “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni, “Bank xizmatlari iste‘molchilari bilan o‘zaro munosabatlarni amalga oshirishda tijorat banklarining faoliyatiga qo‘yiladigan minimal talablar to‘g‘risida”gi nizom (ro‘yxat raqami 3030, 2018-yil 2-iyul), “Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risida”gi nizom (ro‘yxat raqami 2696, 2015-yil 14-iyul), “Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ichki qoidalarga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida”gi nizom (ro‘yxat raqami 916, 2000-yil 5-aprel), “O‘zsanootqurilishbank” ATBning kredit siyosati (ichki ro‘yxat raqami 660, 2025-yil 9-oktyabr), “O‘zsanootqurilishbank” ATBning ichki hujjatlarini tayyorlash va qabul qilish tartibi (ichki ro‘yxat raqami 638, 2025-yil 24-fevral) hamda boshqa hujjatlarga muvofiq ishlab chiqilgan bo‘lib, “O‘zsanootqurilishbank” ATB (keyingi o‘rinlarda – Bank) tizimida moliyaviy qiyinchiliklar, murakkab hayotiy vaziyatlarga tushib qolgan hamda fors-major holatlari tufayli o‘z vaqtida kredit to‘lovlarini amalga oshirishga qiynalayotgan mijozlar bilan tuzilgan kredit shartnomasi shartlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish kredit shartnoma shartlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish (restrukturizatsiya) tartibini belgilaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Tartibda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

mijoz – Bank bilan kredit shartnomaviy munosabatlariga kirishgan va joriy qarzi mavjud bo‘lgan jismoniy va yuridik shaxslar;

birgalikda qarz oluvchi – qarz oluvchi bilan kredit (mikroqarz) va uning foizlari bo'yicha oylik to'lovlarda qatnashuvchi, shuningdek kredit (mikroqarz) bo'yicha solidar javob beruvchi shaxs;

anketa – yagona oyna dasturi (CRM) yoki elektron dasturiy ta'minot orqali mijozga kredit amaliyotlari, shuningdek amaldagi kreditlari bo'yicha kredit shartnoma shartlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish hamda kredit hujjatlarining elektron aylanishini ta'minlovchi vosita;

vakolatli organ – mijozlarning amaldagi kreditlari bo'yicha kredit shartnomasi shartlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha tegishli qaror qabul qilish vakolatiga ega bo'lgan Bankning boshqaruv organlari, boshqa kollegial organlari (Bank boshqaruvi/Kredit qo'mitasi/Muammoli qarzdorliklar bilan ishlash qo'mitasi/vakolatli mas'ul xodimlar guruhi (anderrayterlar));

Bank tarmog'i – mijozlarning amaldagi kreditlari bo'yicha kredit shartnoma shartlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish masalalari bilan shug'ullanuvchi Korporativ markaz, O'rta biznes markazi, Bank xizmatlari ofislari (BXO) va Bank xizmatlari markazlari (BXM);

menejer – mijozlarga to'g'ridan to'g'ri kreditlash xizmatini ko'rsatadigan (amaldagi kreditlari bo'yicha kredit shartnoma shartlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish) Bank tarmog'ining sotuv menejerlari.

2. Bank tizimida moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelgan mijozlar bilan tuzilgan kredit shartnomasi shartlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish (restrukturizatsiya) quyidagi maqsadlarda amalga oshiriladi:

mijozning joriy moliyaviy yukini kamaytirish;

mijozning joriy to'lov qobiliyatini saqlab qolish;

Bank uchun yo'qotishlarni minimallashtirish (o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan yangi shartlarda qarzni qaytarish ehtimoli oshishi).

3. Kredit shartnomasi shartlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish (restrukturizatsiya) mijoz kredit shartnomasi bo'yicha o'z majburiyatlarini avvalgi shartlarda bajarish imkoniyati mavjud bo'lmagan (moliyaviy qiyinchiliklar, murakkab hayotiy vaziyatlar hamda fors-major holatlari tufayli o'z vaqtida kredit to'lovlarini amalga oshirishga qiynalayotgan) hollarda qo'llaniladi.

2-bob. Kredit shartnomasi shartlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish turlari, shuningdek o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishga asos bo'ladigan holatlar ro'yxati

4. Moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelgan mijozlar bilan tuzilgan kredit shartnomasi shartlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishning (restrukturizatsiya) turlariga quyidagilar kiradi:

kredit to'lovlari muddatini uzaytirish;

kredit foiz stavkasini qayta ko'rib chiqish;

kredit to'lovlarini kechiktirganlik uchun jarima va penyalar miqdorini kamaytirish;

qonunchilik hujjatlarida ko'zda tutilgan boshqa holatlar.

5. Mijoz-jismoniy shaxs bilan tuzilgan kredit shartnomasi shartlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishga (restrukturizatsiyaga) asos bo'ladigan moliyaviy qiyinchiliklar, murakkab hayotiy vaziyatlar hamda fors-major holatlari **ro'yxati** quyidagilardan iborat:

mijozning ikki oydan ortiq davr mobaynida vaqtincha mehnatga layoqatsiz bo'lib qolishi;

mijozning mehnat shartnomasi bekor qilinishi va ish qidirayotgan shaxs sifatida tuman (shahar) kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limlarida ro'yxatga olinishi;

mijozning birgalikda qarz oluvchisi va (yoki) kafili bo'lgan turmush o'rtog'i vafot etishi;
I yoki II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar mijoz – jismoniy shaxsning qaramog'iga olinishi yoki uning qaramog'idagi I yoki II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar sonining ortishi;
mijozga nisbatan nogironlikning I yoki II guruhi belgilanishi;
tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarning yuzaga kelishi;
mijozning homiladorlik va tug'ish ta'tiliga chiqishi;
mijozning moliyaviy holatiga ta'sir qiluvchi boshqa holatlar yuzaga kelganda.

6. Quyidagi holatlar **mijoz – yuridik shaxslarning** amaldagi kreditlari bo'yicha kredit shartnomalari shartlarini o'zgartirishga asos bo'ladi:

kredit shartnomasi bo'yicha o'z majburiyatlarini bajara olmasligiga olib kelishi mumkin bo'lgan yengib bo'lmas kuch ta'siridagi vaziyatlar yuz berishi;

tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarning yuzaga kelishi.

7. Mijoz - yuridik shaxslarning kredit shartnomasi shartlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish "O'zsanoatqurilishbank" ATBning Kredit siyosati va "O'zsanoatqurilishbank" ATB tizimida yuridik shaxslarni kreditlash tartibida belgilangan shartlar va talablar asosida amalga oshirilishi lozim.

3-bob. Kredit shartnomasi shartlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish (restrukturizatsiya) bo'yicha arizalarni qabul qilish va ko'rib chiqish

8. Mijoz kredit shartnomasi shartlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish (restrukturizatsiya) bo'yicha ariza bilan bevosita Bank tarmog'iga tashrif buyurgan holda yoki elektron shaklda murojaat qilishi mumkin.

9. Murojaatlar Bankka kelib tushgan kundan e'tiboran **o'n besh kundan** kechiktirmay, qo'shimcha o'rganish va (yoki) tekshirish, qo'shimcha hujjatlarni so'rab olish talab etilganda esa bir oygacha bo'lgan muddatda ko'rib chiqilishi hamda yozma yoki elektron shaklda javob berilishi kerak.

Bunda, murojaatlar Bankka kelib tushgan kunning ertasidan kechiktirmagan holda ro'yxatga olinishi, menejer tomonidan ariza va unga ilova qilingan hujjatlar bank dasturiga yuklanishi hamda tanishib chiqish uchun Bank tarmog'i rahbariga (vakolatli o'rinbosariga) EHA dasturi orqali yuborilishi lozim.

10. Bank tarmog'i rahbari (vakolatli o'rinbosari) mijozning arizasi va unga ilova qilingan hujjatlar bilan tanishib chiqqandan so'ng, ariza o'rnatilgan tartibda ijro qilish uchun mas'ul menejerga yuboriladi.

11. Mijoz-jismoniy shaxs tomonidan berilayotgan arizaga quyidagi holatlarni tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinishi lozim:

mijozning ikki oydan ortiq davr mobaynida vaqtincha mehnatga layoqatsiz bo‘lib qolishini;

mijozning mehnat shartnomasi bekor qilinishi va ish qidirayotgan shaxs sifatida tuman (shahar) kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limlarida ro‘yxatga olinishini;

mijozning birgalikda qarz oluvchisi va (yoki) kafili bo‘lgan turmush o‘rtog‘i vafot etishini;

I yoki II guruh nogironligi bo‘lgan shaxslar qarz oluvchining qaramog‘iga olinishi yoki uning qaramog‘idagi I yoki II guruh nogironligi bo‘lgan shaxslar sonining ortishini;

mijozga nisbatan nogironlikning I yoki II guruhi belgilanishini;

mijoz bilan bog‘liq tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarning yuzaga kelishini;

mijozning homiladorlik va tug‘ish ta‘tiliga chiqishini;

va boshqa asoslovchi hujjatlar taqdim etilganda mijozning moliyaviy holatiga ta‘sir qiluvchi holatlar yuzaga kelganda.

Bunda, mazkur bandning ikkinchi va uchinchi xatboshilarida nazarda tutilgan holatlar yuzasidan mijoz tomonidan kredit shartnomasi bo‘yicha to‘lovlar muddatini kechiktirish yoki uzaytirish to‘g‘risida bankka murojaat qilinganda mazkur murojaat sanasidan oldingi ikki oy davomida mijozning o‘rtacha oylik daromadlari so‘nggi o‘n ikki oy ichidagi o‘rtacha oylik daromadlariga nisbatan kamida 30 foizga kamaygan bo‘lishi lozim.

Mazkur bandning ikkinchi – sakkizinchi xatboshilarida belgilangan holatlar mijozning kredit shartnomasi bo‘yicha to‘lovlar muddatini kechiktirish yoki uzaytirish yuzasidan bankka murojaat qilgan sanadan oldingi to‘rt oy ichida ro‘y bergan bo‘lishi lozim.

Kredit tasnifi o‘zgartirilmasligi va shartlari qayta ko‘rib chiqilgan aktivlar deb tasniflanmasligi uchun kredit shartnomasi bo‘yicha to‘lovlar mazkur bandning:

ikkinchi – yettinchi va to‘qqizinchi xatboshilarida belgilangan holatlarda 6 oydan;

sakkizinchi xatboshisida belgilangan holatda 10 oydan ko‘p bo‘lmagan muddatga kechiktirilgan yoki uzaytirilgan bo‘lishi lozim.

12. Mijoz-yuridik shaxs tomonidan berilayotgan arizaga quyidagi tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinishi lozim:

korxonalar ta‘sischilarining amaldagi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan qarori (xususiylashtirilgan qarorlar va yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmay faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlari bundan mustasno) va korxonalar rahbarining tegishli buyrug‘i (yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmay faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlari bundan mustasno);

biznes reja/TIAGA (mavjud bo‘lgan hollarda) kiritilgan asoslantirilgan qo‘shimcha;

oxirgi hisobot davri uchun Balans (F 1) va moliyaviy natijalar (F 2) to‘g‘risidagi hisobotlari (O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi ma‘lumotlar bazasidan onlayn tarzda olingan holatlar bundan mustasno);

oxirgi davr uchun choraklik buxgalteriya balansi, moliyaviy natijalar to'g'risida hisoboti (mijoz moliyaviy faoliyat davri ushbu davrni qoplamagan holatlarda hisobot oyining 1 kuniga tayyorlangan tezkor buxgalteriya balansi, moliyaviy natijalar to'g'risida hisoboti);

boshqa banklardagi hisobvaraqlar aylantirish to'g'risida ma'lumot (mavjud bo'lgan hollarda);

garov qo'yuvchi, kafil, sug'urta tashkilotining o'rnatilgan tartibda rasmiylashtirilgan roziligi;

ta'minot tarkibidagi barcha mulklarning bugungi kundagi holatining menejer ishtirokidagi rasmlari.

4-bob. Mijozlardan qabul qilingan arizalarni ko'rib chiqish va baholash mezonlari

13. Mijozlarning kredit shartnomasi shartlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish (restrukturizatsiya) to'g'risidagi arizasiga asosan menejer tomonidan bank dasturlarida mijozning anketasini shakllantiradi.

Bunda, mijozning arizasi va unda keltirilgan vajlar, holatlar va sabablar o'rganilib, o'rganish natijasiga ko'ra tegishli mahsulot pasporti talablariga muvofiqligi yuzasidan xulosa rasmiylashtiriladi. Mazkur xulosa menejer, Bank tarmog'i rahbari va/yoki tegishli o'rinbosari tomonidan imzolanishi zarur.

Shakllantirilgan xulosaga asosan, ariza rad etilgan taqdirda Bank tarmog'i tomonidan mijozga **uch kun ichida** asoslangan tarzda javob xati taqdim etiladi.

14. Qabul qilingan ariza bo'yicha ijobiy xulosa shakllantirilganda kredit hujjatlari skaner qilinib, bank dasturlariga elektron shaklda yuklangan holda yakuniy qaror qabul qilish uchun tegishli vakolatli organga yuboriladi.

15. Taqdim etilgan anketa va unga ilova qilingan kredit hujjatlari vakolatli organ tomonidan "O'zsanoatqurilishbank" ATB tizimida Kredit qo'mitalari, Muammoli qarzdorliklar bilan ishlash qo'mitasi hamda Anderrayterlar guruhi to'g'risida"gi nizomga asosan ko'rib chiqiladi va vakolati doirasida qaror qabul qilinadi.

Bunda, mijoz arizasi vakolatli organ tomonidan rad etilgan taqdirda, rad etish sabablari ko'rsatilgan asoslantiruvchi qaror bank dasturiga biriktiriladi va menejerga qaytariladi.

16. Menejer vakolatli organ tomonidan qabul qilingan rad etish qarori asosida rad etish asoslari ko'rsatilgan holda mijozga **uch kun ichida** asoslantirilgan tarzda rad javobini taqdim etadi.

17. Vakolatli organ tomonidan ma'qullangan (ijobiy qaror qabul qilingan) murojaat yuzasidan qaror nusxasi dasturga biriktirilgan holda kredit shartnomasi va uning ilovasiga tegishli o'zgartirish kiritish uchun Kredit monitoringi va nazorati departamentiga yo'naltiriladi.

18. Kredit monitoringi va nazorati departamenti kredit shartnomasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish loyihasi (*zarur hollarda ta'minot hujjatlari loyihasini ham*) tayyorlaydi hamda menejerga yuboradi.

Bunda, tegishli vakolatli organ qarorida qo'shimcha shartlar belgilangan bo'lsa ushbu shartlar ham kredit shartnomasiga (*zarur hollarda ta'minot hujjatlariga loyihasini ham*) kiritilishi lozim.

19. Menejer Kredit monitoringi va nazorati departamenti tomonidan taqdim etilgan kredit shartnomasiga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar loyihasini (*zarur hollarda ta'minot hujjatlari loyihasini ham*) mijozga imzolash uchun taqdim etadi. Bunda, mijoz ushbu loyihani o'qib tanishib chiqish uchun o'zi bilan olib ketishi mumkin.

Bunda, kreditning oxirgi muddati uzaytirilgan taqdirda, ta'minotga qabul qilingan sug'urta polisi, garov va kafillik hujjatlari hamda ta'minot hujjatlari uzaytirilayotgan kredit muddatiga mos ravishda uzaytirilishi lozim.

Ta'minot hujjatlariga o'zgartirish kiritish menejer hamda Kredit monitoringi va nazorati departamenti mas'ul xodimi javobgarligi ostida ular tomonidan nazorat qilinishi lozim.

20. Kredit shartnomasi shartlariga o'zgartirish va qo'shimchalar (restrukturizatsiya) kiritilayotgan kredit hujjatlari mijoz tomonidan imzolanganidan so'ng, menejer kredit hujjatlarini skaner qilgan holda elektron nusxasini bank dasturiga yuklaydi va Kredit monitoringi va nazorati departamentiga yuboradi.

21. Kredit monitoringi va nazorati departamentining mas'ul xodimi menejer tomonidan taqdim etilgan hujjatlarni yakuniy tekshiruvdan o'tkazgandan keyin bank dasturida kredit shartnomasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish uchun menejerga ruxsat beradi.

22. Menejer tomonidan o'zgartirish va qo'shimcha kiritilgan kredit shartnomasi va uning ilovasiga asosan bank dasturida tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritiladi.

23. Mazkur Tartibda keltirib o'tilgan hujjatlarni rasmiylashtirishda (sug'urta, notarius hamda garov bilan bog'liq xarajatlar) yuzaga keladigan xarajatlar mijoz tomonidan amalga oshiriladi.

24. Menejer kredit shartnomasi shartlariga o'zgartirish va qo'shimchalar (restrukturizatsiya) kiritilgan kredit hujjatlari yig'majildini Kredit monitoring va nazorati departamenti mas'ul xodimiga topshirish-qabul qilish dalolatnomasiga asosan 5 ish kunigacha bo'lgan muddat ichida topshiradi.

25. Dalolatnoma asosida qabul qilib olingan kredit yig'majildi Kredit monitoringi va nazorati departamenti mas'ul xodimi javobgarligida kredit to'liq so'ndirilguniga qadar saqlanadi.

26. Kredit yig'majildidagi hujjatlar zarur bo'lgan hollarda Kredit monitoringi va nazorati departamentining tegishli ruxsati asosida olinishi mumkin.

5-bob. Yakuniy qoidalar

27. Mazkur Tartib Bank boshqaruvi qarori bilan tasdiqlangandan so'ng kuchga kiradi. Ushbu Tartib bilan tartibga solinmagan masalalar Bankning amaldagi ichki qoidalari va mahsulot pasportlari talablariga muvofiq tartibga solinadi.

28. Bank xodimlari ushbu Tartib bo'yicha ish yuritayotganda korrupsiyaviy harakatlarni sodir qilishdan o'zini tiyishi lozim, jumladan:

korrupsion harakatlarni to'liq taqiqlashi va har qanday moddiy shaklda yordam (bevosita yoki bilvosita) berishi va boshqa afzalliklarni ta'minlashni to'liq rad etadi;

amaldagi qonunchilik, shuningdek uning asosida ishlab chiqilgan Bankning korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan ichki hujjatlari talablariga amal qiladi;

jinoyat yoki huquqbuzarlik alomatlari borligi to'g'risida aniq faktlar yoki dalillar aniqlangan taqdirda, bu haqida o'rnatilgan tartibda huquqni muhofaza qilish organlariga xabar beradi.

29. Bank xodimlari manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq munosabatlarda O'zbekiston Respublikasining "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonuni talablariga qat'iy rioya qilishlari shart.

30. Mazkur Tartibda nazarda tutilgan qoidalarning amaldagi qonunchilikka zid bo'lmagan qismi amalda bo'ladi. Agar ushbu Tartibda belgilangan qoidalar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan zid bo'lsa, Tartibga o'zgartirish kiritilmaguncha amaldagi qonunchilikka rioya qilinishi lozim.

31. Ushbu Tartib talablarini buzgan bank xodimlari amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

Biznes Bosh direktori
v.b.:



T.Norov

kelishuvchilar: B.Davirov, F.Xasanov, Y.Sultanov, A.Omonov, T.Rapiyev, S.Sanjarov, A.Yoqubjonov, Sh.Xasanov, D.Mamadaliyev, A.Kamalov, D.Shamirzayev, A.Abdumajidov, B.Otamurotov, Sh.Ismoilov, J.Ibragimov

<https://hujjat.sqb.uz/?pin=rV33qC44&id=b0c88789-684c-4ffe-b738-bc4bff803dfc>